ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIPOLOGIK TALQIN: ADABIY TAFAKKUR, POETIK IDROK, MATN STLISTIKASI MUNOSABATI

Berdiboyev Ulug'bek Soatboy o'g'li,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi assistenti.

Tipologiya (yunoncha tip – namuna, barmoq izi, logos – ta'limot) tushunchasi obyektlararo munosabatni umumlashma vositasida o'rganish tartibini anglatadi, mavjud model har bir predmetni struktura hamda funksiya kesimida tahlillaydi. O'ziga xos xususiyatlar va mushtarak belgilar majmuini muqoyasada tadqiq etish istiloh tabiatini belgilaydi, ikki yoki undan ortiq materiyaaro o'xshashlik hamda tafovutni yaxlitlikda tekshirish uning asosini tashkil etadi. Joriy holatda obyektlar orasida uchraydigan ichki hamda tashqi aloqani qayta tiklash tipologik tadqiqotlar kun tartibiga chiqadi. Vaholanki, "muayyan davrda yashagan bir qator ijodkorlar yaratgan ko'plab asarlarda tipologik umumiylik mavjud. Tipologik umumiylik hayot materialini tanlash, uni badiiy idrok qilish va baholash tamoyillarida, asarlarning badiiy shakl xususiyatlari, uslubiy jihatlarida namoyon bo'ladi. Uzluksiz adabiy jarayonning muayyan bosqichlarida kuzatiluvchi badiiy ijodning g'oyaviy-estetik tamoyillari asosidagi umumiylik adabiy yo'nalish haqida gapirish imkonini beradi"[1]. Asosiy adabiy-estetik tushuncha ijodkor fitrati o'ziga xosligini tavsiflash barobarida uning universal bog'lanishlarini ham ta'minlaydi. Analogiya, eng avvalo, ruhiy ohangdoshlikda umumiylik kasb etadi, til, mentalitet yoki e'tiqod mushtarakligi tadqiqotchi mehnatini ancha yengillashtirishi mumkin.

Insoniyat taraqqiyoti davomida adabiy tafakkur yangilanib turadi, borliqqa nisbatan ongli-faol munosabat isloh qilinishi, maqsad va vazifa o'zgaruvi, davr ruhiyati hamda baholash mezonlari murakkablashuvi, tushuncha va talqin tafovuti masalani oydinlashtiradi. Aslida "adabiyotshunoslik badiiy adabiyot kelib chiqishi, mavjudligi, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarini chuqur va atroflicha o'rganadi. Adabiyotshunoslik predmetini tashkil qiluvchi muammolar bir qismi umumestetik (ya'ni badiiy san'at sohalarining barchasiga xos) muammolar sirasiga kirsa, boshqa bir qismi sof adabiyotshunoslik muammolari sanaladi"[2]. Adabiyot yo'nalishidagi maxsus konsept sifatida badiiy asar mutolaasi, estetik qiymati hamda baholash mezonlarini uyushtiradigan fikrlash malakasi harakatdagi adabiy jarayonni qamraydi, yuksak daraja ijtimoiy mohiyat va shaxsiy tajribani umumlashtiradi. Adabiyotshunoslik predmeti esa ilmiy-nazariy qarashlarni tartibga soladi, fanlararo integratsiya munosabatlarini mustahkamlaydi. San'at zamirida yaxlitlik tamoyili aks etadi, badiiy ifoda qatimida a'zolar bir-biri bilan to'qnashadi, o'zaro aloqaga kirishadi, butunlikni markazga yig'ish ma'no zimmasiga yuklanadi.

Tipologik talqin so'z yordamida bir-biri bilan tenglashadigan adabiy hodisalarni aloqadorlikda tekshiradi, uch birlik – fan, san'at va hayot muqoyasa uchun tayanch markaz vazifasini o'taydi. Vaholanki, "tipologiya – genetik jihatdan o'zaro bog'lanmagan, tili, tarixi, madaniyati tamomila farq qiladigan xalqlar adabiyotida mushtarak jihatlarni aniqlashga yordam beradigan komparativistik tushuncha hisoblanadi. Adabiy hodisalarni tipologik jihatdan o'rganish, jahon adabiyotida kechadigan umumiy jarayonlarni anglab yetishda, adabiyotlararo aloqalarni yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Qiyoslash tipologiyasi deganda biz umumiy xususiyatlariga (janri, etnik xususiyatlariga) ko'ra u yoki bu adabiyot namunalari qiyoslanishini tushunamiz. Tipologiya natijasida ayrim adabiyotlarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar shakllanadi"[3]. Qiyoslash jarayoni, odatda, hayotiy materiallararo dunyoqarashni tavsiflaydi, talqinda o'ziga xoslik va mushtaraklik aniqlovchisi badiiy shaklni tushunish,

[1] Murodov G'.N., O'rayeva D.S. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Buxoro: Durdona, 2023. – B. 11-12.
[2] Quronov D. Adabiyotnazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018 – B. 4.
[3] Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020 – B. 47.

adabiy mahsulot tabiatini anglash, ma'no yurishlarini belgilashda vositachilik qiladi, komporativistik yondashuv kompleks aloqalar mexanizmini falsafa, mantiq va estetika tamoyillari tartibga solib turadi.

Badiiy adabiyot so'z, tafakkur, nutq va idrokni mohiyatga yo'naltiradi, estetik tamoyildan foydalanish har bir ijodkor fitratida xususiylashadi. Poetik ifoda aynan adib dunyoqarashi hamda e'tiqodini aks ettiradi, tasavvurdan tasvirga o'tish jarayoni asosiy sath – matnni tadqiq sahniga chiqaradi. Matn poetik tafakkurga material va vosita vazifasini bajaradi, istiloh sifatida "har bir matn ortida til tizimi turadi. Lug'aviy zahira takror va taqliddan yangilangan mohiyat yaratadi, umumiy tushunchani individual, xususiy hamda betakror hodisaga aylantirish badiiy ifoda zimmasiga tushadi. Pozitiv munosabat yordamida so'z tasvir predmetiga o'zgaradi, fikrlash malakasi aloqalarni muayyan nuqtaga yig'ish imkonini beradi"[1]. Badiiy asar aslida o'z-o'zicha mavjudlik, belgilar majmuidan tashkil topgan tarkib xilma-xil ichki hamda tashqi aloqalarni birlashtiradi. Buyuk rus olimi M.M.Baxtin ma'no va dialog hamkorligini matn yetakchi xususiyati sifatida belgilaydi, bunda muallif, asar, til, nutq, janr, tasvir, tafakkur manfaatlari bir-biriga qorishib ketadi.

"Har bir g'oyada inson intilishi, istagi ham mavjudligi yozuvchining g'oyaviy pozitsiyasi bilan uning ijodkorlik shaxsi orasida dialektik aloqaning bo'lishi muqarrarligini ko'rsatadi. Har bir odam o'z ongida obyektiv borliqni aks ettirish bilan birga, uni ijod qilib yaratar ekan, demak, voqelikni takrorlanmas, individual bir tarzda tasvirlash va uning haqqoniy obrazini yaratish yozuvchidan hamisha obyektiv va subyektiv ibtidolarni dialektik ravishda birlashtirib asar yozishni talab qiladi"[2]. Yozuvchi g'oyaviy pozitsyasi va ijodkor shaxsi muttasil bir-birini taqozolaydi, obyektiv hamda subyektiv ibtido aloqasi hayotiy materialdan obraz taqvimiga o'tishga zamin hozirlaydi. Tasvir predmetini boshqasi bilan o'zaro chog'ishtirish ikki obyekt xususiyatlariga aniqlik kiritish imkonini beradi, joriy holatda mushtarak hamda tafovut jihatlarini topish, ichki aloqalar tutashuvini belgilash tadqiq sahniga ko'tariladi. Nozik kuzatishdan jonli mushohadaga ko'chish jarayoni tahlil va umumlashma birligiga tayanadi, estetik ideal tasviri materiyani qayta ijodiy shakllantirishga yo'l ochadi. Boshqacha aytganda, poetik g'oya o'ziga mazmun maxrajini tanlaydi, ijodkor fitratida bo'y ko'rsatadigan mohiyat originalligi umumlashma xususiyatini hosil qiladi. Hissiy idrok muqoyasa, nisbat, taqqos, qiyosni obyektlarni aniqlovchi muhim vosita darajasiga ko'taradi.

Umuman, tipologik talqin tahlil modelini shakllantiradi, genetik jihatdan bir-biriga bog'lanmagan ikki material tipologiyasini tavsiflash jarayoni xususiyat va umumlashmani o'zaro yaqinlashtiradi. Hatto qardosh xalqlar adabiyoti namunasi nisbati ham yangi atmosferani taqdim etadi, individual adabiy talqin analogik mushtaraklikni inkor etmaydi. Qiyoslash mobaynida tadqiqotchi ijodkor shaxsi, matn va estetik tamoyillarni aniqlab oladi, tafovutlaydi hamda tutash rishtalarni tanlaydi. O'ziga xos belgilarni universal xususiyatga qadar rivojlantirish istiloh tabiatini belgilash barobarida adabiyotshunoslik metodlarini kun tartibiga qo'yadi.

Rezyume: Maqolada fanlararo sathda tipologik talqin tabiati, adabiy tafakkur tushunchasi mohiyati, matn stilistikasi o'ziga xosligi nazariy umumlashtiriladi. Unda adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, estetika hamda mantiq chorrahasida kesishadigan badiiy nutq tipi, belgilar majmui aloqasi, san'at asari holati, til tizimi harakati, mavjudlik va bayon usuli, shakl va mazmun birligi, ifoda va tasvir uyg'unligi xususida mushohada yuritiladi. Aslida ma'no yurishi ijodiy mustaqillik asnosida shaxs manfaati hamda muallif maqsadini bir-biriga payvandlashga ham xizmat qiladi.

Resume: The article provides a theoretical generalization of the nature of typological interpretation at the interdisciplinary level, the essence of the concept of literary thinking, and the unique features of text stylistics. It reflects on the type of artistic discourse situated at the intersection of literary studies, linguistics, philosophy, aesthetics, and logic–exploring the interrelation of sign systems, the condition of the work of art, the dynamics of the language system, modes of existence and narration, the unity of form and content, and the harmony between expression and imagery. In essence, the flow of meaning also serves to integrate personal interest and the author's intent within the framework of creative independence.

[1] Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. – Москва: Художественная литература, 1986. – В. 475.
[2] Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik, 2-jild. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 92.

Резюме: В статье теоретически обобщается природа типологической интерпретации на междисциплинарном уровне, сущность понятия литературного мышления и своеобразие стилистики текста. Рассматриваются тип художественной речи, находящийся на пересечении литературоведения, языкознания, философии, эстетики и логики, взаимосвязь системы знаков, состояние художественного произведения, динамика языковой системы, способы существования и повествования, единство формы и содержания, гармония выражения и образа. По сути, движение смысла также служит средством соединения личного интереса и авторского замысла в рамках творческой самостоятельности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ROMANDA SYUJET VA XARAKTER DINAMIKASI

Duysenbayev Olimjon Ismailovich,
Qoraqalpoq davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Keyingi yillar romanchiligida inson tafakkuridagi evrilishlarni, hayotga yanada teranroq munosabatda bo'lishni, odam va olam haqidagi qarashlarni falsafiy tarzda aks ettirish yetakchilik qila boshladi. Adabiyotshunos A.Rasulov "Akslar falsafasi" maqolasida quydagi fikrlarni qayd qiladi: "Shakllar, qiyofalar, g'oyalar va obrazlar yaratilar ekan, tobora shiddatli tus olib borayotgan zamonaviy dunyo yana yangi ruhiy tayanchga ehtiyoj tuya boshlagan edi. Badiiy asar xayol mahsuli, xayol esa kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalarni oldindan jonlantirib ko'rish deganidir"[1]. Nabijon Hoshimovning "Tog'lik qiz" romani syujetidan o'rin olgan voqealar silsilasida qahramonning ma'naviy olamini yoritilishi yetakchilik qiladi.

Asardagi Hasan bolalik xotiralariga qaytar ekan, o'z o'tmishiga nazar solgan qahramon tafakkurdagi ziddiyatlarni yanada teranroq his eta boshlaydi. Quyidagi tasvirlarga e'tibor qarataylik:

O'zbek ayollarining matonatiga, sabr-bardoshiga qoyilman! Bunaqasi hayotda juda kam uchraydi.

– Ha. Anavi daraxt – ayol aslida o'sha bo'ladi, – dedi Xasan va quyoshga iltijo qilayotgan ayol-daraxtni ko'rsatib.

– Yo'g'e. Rostdanmi? U onang emasmidi?

– Yo'q, bu o'sha Mushtariy. Gitara ushlab turgan tosh bu men, dutor ushlab turgani Xusan. Bizning tog'da xuddi shunga o'xshash egiz qoya bor, u yerga meni ilk bor Mushtariy olib borgandi. – Rostdan-a? Qani endi o'sha joyni men ham bir ko'rsaydim[2]

"Tog'lik qiz" romanida qayd qilingan bu tasvirlar mustaqillik davridagi ba'zi asarlar qahramonlari tasviriga o'xshab ketadi, ammo ular taqdiri bir – birini to'ldirib, hayot mantig'ini anglash jarayonidagi mulohazalari mohiyatan farq qiladi. Shuning uchun romanlardagi tasvirlar turli ramzlar orqali aks ettirilganligini kuzatamiz. Bolalik xotiralarini yodga olish,

[1] Rasulov A. Akslar falsafasi. – Toshkent: "Sharq", 2012. – B. 406.
[2] Nabijon Hoshimov "Tog'lik qiz" roman. – Toshkent: Ijod-press nashriyoti, 2016. – B. 18.